2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 227 (1288), 2024-yil 8-noyabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SUV XO‘JALIGI SOHASIDA KESKIN O‘ZGARISH QILISHNING BIRDAN-BIR YO‘LI – RAQAMLASHTIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Bugun dunyoda ekologik muammolar, tabiiy ofatlar ko‘payib bormoqda. Bizning mintaqamizga suv tanqisligi xavf solmoqda. Shu bois, mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, bu ne’matni asrash bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda.

Jumladan, 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani evaziga 200 ming gektarda suv yaxshilandi, yiliga 450 million kub metr suv iqtisod bo‘lyapti. Fermer va klasterlar tomonidan ham 13 ming kilometr ichki tarmoq betonlandi.

Suv boshqaruvi isloh qilinib, tumanlarda suvni hisobga olish tizimi shakllandi, fermerlar suvni hisob-kitob qilishni o‘rgandi. Shaffof tizim yo‘lga qo‘yilgani natijasida bu yil yerga 2 karra ko‘p suv bordi, yana 6 milliard kub metr suv hisobi joyiga qo‘yildi.

Lekin hali dolzarb masalalar ko‘p. Masalan, klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har bir kub metr suvga respublika bo‘yicha o‘rtacha 212 so‘m xarajat qilinyapti. Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu 2-3 barobar qimmat.

Oxirgi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiya qilindi. Lekin o‘rta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi oshib ketyapti. Betonlash hisobiga yo‘qotish 10-15 foizga kamaygan bo‘lsa-da, 20 ta tumanda bu ko‘rsatkich yuqori.

Shu kabi muammolardan kelib chiqib, yig‘ilishda galdagi vazifalar belgilandi.

Joylarda hali betonlash zarur bo‘lgan 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanallar bor. Shu bois, kelgusi yilda bu ishlarga 800 milliard so‘m ajratilishi qayd etildi.

O‘tgan yili texnika, ishchi kuchi va qum-shag‘aldan yordam bo‘lgani uchun betonlash xarajati 2 karra arzonlashgan. Pudratchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida sement yetkazib berish orqali tannarxni yana 20 foizga pasaytirish mumkinligi aytildi.

Yana bir jihati — betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Bu — kichik GESlar qurib, elektr olishga katta imkoniyat. Navoiy viloyatida 11 megavattli 148 ta shunday stansiya qurish boshlangan. Umuman, hududlarda 2 mingta mikro GES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 million kilovatt elektr olish mumkin.

Mutasaddilarga bu borada xususiy sheriklik shartlarini ishlab chiqib, tadbirkorlarga e’lon qilish topshirildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi yaxshi tajribalarni ko‘rsatib o‘tdi. Jizzax viloyati Do‘stlik tumanida suv boshqaruvini aqlli tizimga o‘tkazish bo‘yicha 21 million dollarlik loyiha yakunlangan. Suv taqsimlanadigan 2 mingta nuqtaga hisoblagich va videokamera o‘rnatilgan. Bunda avtomatlashgan boshqaruv natijasida 20 foiz, sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash hisobiga yana 10 foiz suv tejaladi. Suv boshqaruvi xususiy sektorga berilib, fermerlar bilan kooperatsiya tuziladi. Ilk bor suvga oldindan to‘lov bo‘ladi.

Viloyat hokimlariga ushbu tizimni o‘rganib, suv ta’minoti og‘ir tumanlarda joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Bugungi kunda yerlarni sug‘orishga 1 ming 600 dan ziyod nasos stansiya ishlatilmoqda. Ular o‘ziga yarasha elektr energiyasi talab qiladi. Shu bois, 2025-yil — suv xo‘jaligida “nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘lishi belgilandi.

Xususiy sherik bilan tejamkor nasos va quyosh paneli o‘rnatib, 20 foiz elektr tejash mumkin. Masalan, xorazmlik dehqonlar shunday qilyapti. Shuningdek, quyosh paneli o‘rnatib, ehtiyojidan ortgan elektrni davlatga sotib, oyiga qo‘shimcha 7-8 million so‘m daromad olyapti.

Mutasaddilarga ushbu tajribani kengaytirishni rag‘batlantirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Respublika bo‘yicha 2 million gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingani natijasida o‘tgan yilning o‘zida 2 milliard kub metr suv tejalgan. Lekin ayrim dalalarda o‘rnatilgan uskunalar ishlamayapti.

Endi bu qat’iy nazoratga olinadi. Kelgusi yilda yana 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatiladi. Qoraqalpog‘istonda qo‘llangan lazerli tekislangan yerning har gektariga 1 million so‘mdan subsidiya berish tizimi endi Xorazmda ham bo‘ladi. Boshqa hududlarda ham lazerli tekislash kengaytiriladi.

Bahor va kuzdagi sel suvlarini yig‘ish —sohadagi yana bir manba. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida shunday inshootlar barpo qilib, 50 ming gektarda suv ta’minotini yaxshilash imkoni bor. “O‘zbekgidroenergo” kompaniyasi bu borada ikki yillik reja oldi.

Prezidentimiz suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish qilishning birdan-bir yo‘li raqamlashtirish ekanini ta’kidladi.

Nasos stansiyalariga onlayn nazorat va “aqlli suv” qurilmalari olib kelingan. Lekin ulardan olinadigan ma’lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo‘q. Suv iste’moli va hisob-kitobi o‘ta murakkab.

Shu bois, vazirlik huzurida Suv xo‘jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi belgilandi. Unda suv iste’moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushiriladi.

Mutasaddilarga suv xo‘jaligida 2030-yilgacha bo‘lgan eng muhim loyihalar dasturini tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan vazirlar, hokimlar va soha mutaxassislarining fikr va takliflari eshitildi.

O‘zA

MUSIQA, JISMONIY TARBIYA VA HARBIY VATANPARVARLIK SHAXS KAMOLOTIDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktablarda musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy vatanparvarlik fanlari sifatini oshirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Bu haqda 30-sentabr kuni Pedagogik mahorat milliy institutida o‘qituvchilar bilan bo‘lgan muloqotda aytilgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu uch yo‘nalishning shaxs kamolotidagi o‘rniga ahamiyat qaratib, ularni o‘qitishni takomillashtirish dolzarbligini ta’kidlagan edi.

Masalan, maktablardagi musiqa o‘qituvchilarining 21 foizi o‘rta maxsus ma’lumotli. Ba’zilarining o‘zi cholg‘u asboblarini chala olmaydi. Sababi musiqa o‘qituvchilarining amaliy malaka oshirish tizimi yo‘q, bu borada san’at maktablari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. Madaniyat institutlari bitiruvchilari o‘qituvchilikka qabul qilinmaydi.

Shu bois, maktablarda saboqlar sifatini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

Xususan, musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati baholanib, malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu yo‘nalish bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari, o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi ishlab chiqiladi.

“Turon maktab teatri”ning ijobiy tajribasi asosida maktablarda “Iqtidor” havaskorlar badiiy jamoalari tashkil etiladi. Oliy ta’lim muassasalarining musiqa va san’at yo‘nalishi bitiruvchilariga maktablarda ishlashga ruxsat beriladi.

Hududlardagi musiqa va san’at maktablarini umumta’lim maktablariga tayanch maktab sifatida biriktirish, iqtidorli o‘quvchilarni kashf etish maqsadida muntazam ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish ham muhim. Maktablarda 22 ta olimpiya, 19 ta noolimpiya, 4 ta milliy sport turlari o‘rgatiladi. Lekin jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanmalar yo‘q. O‘quvchilarni seleksiya qilish tizimli emas.

Shuning uchun jismoniy tarbiya fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilib, o‘quv dasturlari takomillashtiriladi. Ushbu fan o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab, bosqichma-bosqich hamma joyda maktab sport klublari tashkil etiladi. Bu yo‘nalishda ham o‘qituvchilarga toifa berishning yangi tartibi, maktablarning sport bo‘yicha reyting tizimi ishlab chiqiladi.

Bugun zamonning o‘zi har bir fuqarodan vatanparvar bo‘lishni taqozo etmoqda. Bunda, ayniqsa, harbiy xizmatchilar, chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari o‘rnak bo‘lishlari kerak.

Hozir maktablarda qariyb 10 ming nafar ana shunday pedagoglar faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin ularning 27 foizi nomutaxassis. 2 ming 750 ta maktabda ushbu fan uchun sharoit yetarli emas.

Shu bois, endi chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o‘tadi. Endi bu vazifaga Qurolli Kuchlar zaxirasidagi harbiylar ishga qabul qilinadi.

Mazkur fan bo‘yicha yangi o‘quv dasturi va darsliklar yaratiladi. Har bir tuman va shaharda bittadan maktab negizida “Jasorat maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Mutasaddilar bu boradagi ishlarni tashkil etish rejalari yuzasidan axborot berdi. Oliy o‘quv yurtlarida mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha pedagoglar tayyorlashni tubdan o‘zgartirish, malaka talablari va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zA

Munosabat

TURKIY OLAM: MUSHTARAK MADANIY MEROS HAMDA UMUMIY QADRIYATLAR

O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lganidan boshlab qisqa muddat ichida davlatlararo munosabatlarning deyarli barcha sohalarida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi barqaror, ko‘p tomonlama aloqalar ahamiyatini tushunish ortib bormoqda, o‘zaro ishonch kuchayayotgani kuzatilmoqda.

6-noyabr kuni Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda ko‘plab muhim tashabbuslarni ilgari surgan Prezidentimiz qardosh xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalash maqsadida turkiy ellar folklorining ko‘p jildli majmuasini a’zo mamlakatlar tillarida nashr etish, bu borada “Turkiy mamlakatlar tarixi” kabi fundamental tadqiqotlarni birgalikda yaratish dolzarb vazifa ekanini ta’kidladi.

Davomi 2-betda

Davlat dasturi – amalda



EKOLOGIYA va atrof-muhit sohasidagi MUAMMOLARNI SAMARALI HAL ETISHGA BOG‘LIQ

Ona sayyoramiz — yagona yashash makonimiz. Yeydigan nonimiz, taomimiz, uzoq va sog‘lom umr kechirishimiz uchun hayot manbai bo‘lgan toza suv, musaffo havo kabi muhim ne’matlarning barchasini bizga tabiat tortiq etadi. Bularsiz hayot kechirish imkonsiz. Shu bois, hayot paydo bo‘libdiki, uning bardavomligini ta’minlash uchun insoniyat doimo tabiat bilan uyg‘unlikka intiladi.

Ammo o‘tgan asrlarda bu mezonlar anchagina buzildi. Oqibati esa ayon. Ayovsiz munosabatlar natijasini bugun tabiat bizga turli ko‘rinishda qaytarmoqda. Keyingi vaqtlarda internet va ommaviy axborot vositalarida dunyoning turli mintaqalarida ro‘y berayotgan ekologik ofatlar — suv toshqinlari, to‘fonlar, iqlim isishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar haqida tarqalayotgan axborotlar buning isboti.

Chegara bilmas bunday ekologik noxushliklar yurtimizni ham chetlab o‘tmayapti. Yozda issiq haroratning me’yordan oshib ketishi, qishdagi anomal sovuq kunlar, tez-tez ro‘y berayotgan chang-to‘zonlar, cho‘llanish, tuproq degradatsiyasi kabi noxush holatlar bunga misol. Achinarlisi, bunday ekologik inqiroz va atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq global muammolar ko‘lami ortishi natijasida inson salomatligi va hayoti uchun jiddiy xavf kuchayib bormoqda.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

U.B.QOSIMOVNI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Ulug‘bek Berdiqobilovich Qosimov** Surxondaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

SH.K.ABDURAXMANOVNI ANDIJON VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Shuxratbek Kushaqbayevich Abduraxmanov** Andijon viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

SH.SH.ABDURAZAKOVNI NAMANGAN VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Shavkat Shokirdjanovich Abdurazakov** Namangan viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

A.A.MAXMUDALIYEVNI SIRDARYO VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Akmaljon Azimjonovich Maxmudaliyev** Sirdaryo viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 7-noyabr

Turkiy tilli davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida vujudga kelgan bu xalqaro tashkilotning maqsadi o‘zaro hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, umumiy til, madaniyat va an’analar bunday hamkorlikning tagzaminini tashkil etadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat



TURKIY OLAM:

MUSHTARAK MADANIY MEROS HAMDA UMUMIY QADRIYATLAR

Durbek SAYFULLAYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti prorektori, tarix fanlari doktori, professor



Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, turkiy tillardan bevosita tarjima qilishni rag‘batlantirish, maktablarimizda turkiy xalqlar va ularning tarixi, etnografiyasi, madaniyati va san’ati haqida fakultativ darslarni yo‘lga qo‘yish lozimligiga ham to‘xtaldi.

Xalqaro birlashtiruvchi uyushma sifatidagi Turkiy davlatlar tashkiloti o‘z oldiga umuminsoniy va gumanitar maqsadlar qo‘ymoqda. Masalan, turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, shuningdek, hududimizda va jahonda millatlararo kelishuv va barqarorlikka birgalikda hissa qo‘shish tuzilmaning asosiy vazifasi etib belgilangan.

Qadimiy madaniyat orqali bog‘langan turkiy tilli mamlakatlar xalqlarining birlashuvi bugungi jamiyatda jadal rivojlanib borayotgan tendensiyalardan biridir. Mazkur masalada bunga o‘xshash birlashtiruvchi loyihalar, siyosiy va madaniy faoliyat sohasida O‘zbekistonning yuksalib borayotgan ta’siri juda ahamiyatlidir. Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan, butun turkiy olamning faxriga aylangan ajdodlarimizning bebaho merosini birgalikda o‘rganishga yo‘naltirilgan tashabbuslari alohida e’tiborga loyiq. Masalan, Prezidentimiz Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Maxtumquli Firog‘iy va Boborahim Mashrab kabi buyuk shoirlar haqida so‘z yuritar ekan, ularning merosi barcha turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy boyligi ekanini ta’kidladi.

> **Turkiy davlatlar tashkilotining 2019-yil oktabrda Bokuda bo‘lib o‘tgan sammitida O‘zbekiston Prezidentining fan va ta’lim, madaniyat va san’at rivojiga, shuningdek, turkiy olamning birlashuviga katta hissa qo‘shgan mumtoz shaxslarni taqdirlash maqsadida xalqaro mukofot ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullangan edi. Bu nufuzli mukofotni nafaqat xalqimiz, ayni paytda butun turkiy dunyoning faxru g‘ururiga aylangan ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan atash to‘g‘risidagi taklif a’zo davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.**

Shu o‘rinda Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar zaxiralarida qimmatbaho meros saqlanayotganini alohida qayd etish joiz. Xususan, O‘zbekistonda turkiy xalqlar umumiy tarixi va madaniyati bilan bog‘liq 200 mingga yaqin nodir qo‘lyozma mavjud.

Noyob asarlarni o‘rganish, ularni tarjima qilish, ma’lumotlarning yagona bazasini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Turkiy tilli mamlakatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot markazi yaratish borasidagi tashabbusni ilgari surdi. Bu loyiha qardosh turkiy xalqlarning bebaho merosini kelajak avlodlarga yetkazish jarayoniga qo‘shiladigan ulkan hissadir.

Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlarining fan va ma’rifat sohasidagi o‘zaro harakatlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. O‘zbek olimlari turkiy davlatlar madaniy merosini o‘rganish va ommalashtirish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etmoqda. Fan sohasida birlashish turkiy xalqlar umummilliy qadriyatlar, madaniyat hamda boy ma’naviy meros targ‘ibotini birgalikda va yaqin hamkorlikda ilgari surish maqsadining yana bir isbotidir.

Davlat rahbarlarining keyingi yillardagi uchrashuvlarida ziyorat turizmini rivojlantirish, shuningdek, dunyo xalqlarini O‘zbekistondagi ulug‘ bobolarimiz xoki qo‘yilgan joylar bilan tanishtirish maqsadida ishlab chiqilgan turistik loyihalar — “Turkiy olam turizmi”, “Muqaddas joylar bo‘ylab ziyorat”ni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash, bundan tashqari, hunarmandlar buyumlari ko‘rgazmasi va etnosport musobaqalari o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish, madaniy meros obyektlarini asrash, qayta tiklash va boshqalar taklif etildi. Sayohatning ushbu turini rivojlantirish tufayli so‘nggi yillarda aholi bandligi ta’minlanmoqda, infratuzilma takomillashmoqda. Qadimiy tarixiy binolar, yodgorliklar va qadamjolar qaror topgan maskanlarda esa tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda turkiy mamlakatlarning fan rivojiga qo‘shgan hissasini chuqur o‘rganish va madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni hamkorlikda tashkil etish borasidagi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, o‘tgan yilning sentyabr oyida 2020-yilda turkiy olam madaniy poytaxti maqomiga ega bo‘lgan qadimiy Xivada UNESCO bilan hamkorlikda “Markaziy Osiyo jahon tamaddunlari chorrahasida” xalqaro forumi tashkil etilgan edi. Bu tadbir TDTga a’zo davlatlarning fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalaridagi hamkorlik makonini kengaytirishga imkon berdi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, o‘tkazilgan xalqaro she’riyat festivali turkiy xalqlar shoirlari va tarjimonlari, shuningdek, adabiy tashkilotlar o‘rtasida aloqalarni rivojlantirish, qardosh xalqlar ijodkorlarining yaqindan muloqotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgani bilan ham yanada ahamiyatli bo‘ldi.

> **Festival doirasida turkiy mamlakatlardan tashrif buyurgan adiblar barcha turkiy xalqlarning buyuk shoiri Alisher Navoiy haykali poyiga ehtirom ramzi sifatida gul qo‘yib, alloma nomi bilan ataladigan bog‘ga yangi ko‘chat qadadilar. “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildligi hamda “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” kitobining 30 jildligi, Alisher Navoiyning qozoq tilida chop etilgan “Xamsa” asari taqdimoti turkiy tillarda ijod qiladigan shoir-yozuvchilarda chuqur taassurot qoldirdi.**

Qachonlardir turkiy olam uchun ham, ko‘plab boshqa xalqaro tashkilotlar uchun ham yopiq bo‘lgan O‘zbekiston bugun o‘z yutuqlarini jahonga ko‘rsatibgina qolmay, barcha sohalarda barqaror taraqqiyotga erishishga imkon yaratadigan dadil tashabbuslarni ilgari suruvchi mamlakatga aylanib bormoqda. Keng jamoatchiligimiz — olimlar, ziyolilar, adiblar, san’at ahli yurtimizning nufuzi va mavqeini jahon miqyosida yuksaltirishga jazm qilgan.

Xalqaro hamkorlik

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI:

INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA MANFAATLI SHERIKCHILIK

Dilshod KENJAYEV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi boshqarma boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi



> **Joriy yil 6-noyabr kuni Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan majlisida ishtirok etdi va nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari sammit kun tartibidan kelib chiqib, qator ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratdi.**

“Bugun tashkilotimizning tarixiy hujjati — Turkiy dunyo xartiyasi qabul qilinishi qardosh davlatlar va xalqlarimiz o‘rtasida kuchayib borayotgan ko‘p qirrali hamkorlikning yorqin ifodasidir. Aminmanki, biz shu asosda turkiy dunyoni yanada jipslashtirish, uning mavqeini oshirish, o‘zaro manfaatli va do‘stona aloqalarimizni chuqurlashtirish, hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarishga erishamiz”, dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, global dunyoda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, integratsiya tobora kuchayib bormoqda. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy, mafkuraviy jarayonlar hech bir davlat boshqalaridan ajralgan holda rivojlana olmasligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Shu nuqtayi nazardan, taraqqiy etishni o‘ziga maqsad qilib olgan har qanday davlat boshqa yurtlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga intiladi. O‘zbekistonning pragmatik tashqi siyosatida ham ko‘p tomonlama hamkorlik ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Buni Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Turkiy tilli davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida vujudga kelgan bu xalqaro tashkilotning maqsadi o‘zaro hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, umumiy til, madaniyat va an’analar bunday hamkorlikning tagzaminini tashkil etadi.

1992-yil 30-oktabrda Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston ishtirokida Turkiy tilli davlatlar sammiti sifatida vujudga kelgan hamkorlik 2009-yil 3-oktabrga kelib, BMTda ro‘yxatdan o‘tgan xalqaro hukumatlararo tashkilot — Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sifatida, 2021-yildan boshlab esa Turkiy davlatlar tashkiloti sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda TDT faoliyatida O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston a’zo, Vengriya hamda Turkmaniston kuzatuvchi a’zo maqomida ishtirok etib kelmoqda. Tashkilotga a’zo mamlakatlarda 174 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ularning 40 foizini yoshlar tashkil etishi bu hudud katta imkoniyatlar makoni ekanidan dalolat beradi.

O‘zbekiston tashkilotga a’zo bo‘lganidan buyon o‘tgan qisqa davr mobaynida uning faol a’zolaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz TDTning barcha tadbirlarida qatnashib, ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga doir muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Bu tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi xalqaro maydonda O‘zbekistonning nufuzi va maqomini mustahkamlashga xizmat qilyapti.

2023-yil 3-noyabrda O‘zbekiston Prezidentiga tashkilotning oliy mukofoti — “Turkiy dunyoning oliy ordeni” topshirildi. Zero, mamlakatimizning bu tashkilotga a’zoligi qardosh davlatlar bilan ko‘p tomonlama aloqalarni rivojlantirishda keng imkoniyatlar ochdi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda: “Tili, dini va yuraklari bir-biriga chambarchas bog‘langan qardosh xalqlarimiz ovozi endilikda dunyo bo‘ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangramoqda”.


Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlat sifatida O‘zbekiston o‘zaro manfaatli sherikchilikni kuchaytirishdan manfaatdor ekani izoh talab etmaydi. Zotan, tashkilot doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishning 20 ga yaqin ustuvor yo‘nalishi belgilab olingan. Ular doirasidagi sa’y-harakatlar uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilishi hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi shubhasiz. Turkiy davlatlar bilan hamkorlik faol tarzda kechayotgan shunday yo‘nalishlardan biri inson resurslarini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Bugungi kunda inson salohiyati — uning bilimi va ko‘nikmalari davlat taraqqiyotiga belgilovchi ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xizmatida ham inson resurslari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiyasi — bilimi, malakasi va ko‘nikmalari qanchalik yuqori bo‘lsa, tizim faoliyati ham shu qadar samarali bo‘ladi. Demak, davlat xizmati rivojlanishi uchun, eng avvalo, davlat xizmatchilari rivojlanishi kerak. Buning uchun esa ularning kasb malakasini uzluksiz oshirib borish talab etiladi. Shu ma’noda, O‘zbekistonda professional davlat xizmatchilarining yangi korpusini shakllantirish, malakasini oshirish, ta’lim sifati va samaradorligini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarining o‘z kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda oshirib borishi majburiyat sifatida belgilangan. Boshqacha aytganda, davlat fuqarolik xizmatchisi tashkilot vakolatlarini lozim darajada amalga oshirishi kerak. Buning uchun u o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i darkor.

Shu kungacha Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas’ul idoralari rahbarlarining 3 ta yig‘ilishida ham Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi turkiy davlatlarning kadrlar siyosati borasidagi tajribasi bilan yaqindan tanishishdan, tashkilot doirasida bu yo‘nalishda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor ekaniga alohida e’tibor qaratib keldi.

2022-yil 10-11-noyabr kunlari Samarqand sammiti doirasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlarning tegishli tashkilotlari o‘rtasida raqamli inson resurslari tizimlari to‘g‘risida anglashuv memorandumi imzolandi.



Mazkur memorandum davlat xizmatida integratsiyalashgan tizimlar yuzasidan bilim va tajriba almashish, ulardan inson resurslari va iste’dodlarni boshqarish jarayonlarini rivojlantirish maqsadida foydalanish, davlat xizmatiga ilg‘or raqamli yechimlarni joriy qilishda ko‘p tomonlama hamkorlikning asoslarini belgilab berdi.

Bugungi kunda davlat xizmatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, davlat xizmatchilarining salohiyatini tizimli ravishda oshirib borish bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi oldiga muhim vazifalar qo‘yilgan. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati muhim. Qardosh turkiy davlatlar davlat xizmatida inson resurslarini rivojlantirish va iqtidorlarni jalb qilish bo‘yicha boy tajribaga ega.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi turkiy davlatlarning kadrlar siyosati borasidagi tajribasi bilan yaqindan tanishishdan, tashkilot doirasida bu yo‘nalishda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdor.

Shu bois, agentlik Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida inson resurslarini rivojlantirish sohasida ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirish yo‘lidan bormoqda. Hozirgi kunga qadar ko‘p tomonlama hamkorlik hujjatlaridan tashqari Turkiya Prezidenti huzuridagi Inson resurslarini rivojlantirish ofisi, Qozog‘iston Davlat xizmati ishlari bo‘yicha agentligi, Ozarbayjon Davlat imtihon markazi hamda Qirg‘iziston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xizmati ishlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish agentligi bilan ikki tomonlama o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolandi.

Xususan, Ozarbayjon bilan hamkorlikda davlat xizmatchilarining kompetensiyalari modelini ishlab chiqishga urg‘u berilmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatiga iqtidorlilarni jalb qilishda kompetensiyalar modeli asosida saralashning moslashuvchan tizimini ishlab chiqishga e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, Ozarbayjon Davlat imtihon markazi bilan imzolangan o‘zaro anglashuv memorandumi davlat xizmatiga qabul qilish, davlat xizmatchilari faoliyatini baholash va reyestrini yuritish, yoshlar orasidan eng yaxshi kadrlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash uchun tanlovlar tashkil qilish sohalarida o‘zaro tajriba almashish imkonini beradi.

Qozog‘iston bilan esa milliy, tarmoq va hududiy yosh kadrlar rezervini shakllantirish yuzasidan tajriba almashilmoqda. Yosh davlat xizmatchilarini nafaqat o‘qitish va tayyorlash, balki ta’lim davomida ularning dunyoqarashi va falsafasini o‘zgartirish hamda karyerasi davomida ko‘mak berib borish mexanizmlari yuzasidan hamkorlik qilinmoqda.

Turkiyaning iqtidorlarni kashf qilishga yo‘naltirilgan TALENTforBIZ platformasi hamda yoshlar stajirovkasini tashkil qilish bo‘yicha raqamli platformasi bilan tanishish Turkiy davlatlar tashkilotining barcha a’zolari uchun manfaatli bo‘ldi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston davlat xizmati tizimidagi o‘zgarishlar Turkiy davlatlar tashkiloti a’zolari e’tiborini tortmoqda.

O‘zbekistonda mahalla instituti muhim rol o‘ynaydi va aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritadi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati kuchaytirilayotgani va ularga yangi vazifalar yuklatilayotgani “mahalla yettiligi”ni ham rivojlantirishni, ularni zaruriy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishni shart qilib qo‘ydi. Shu bois, 9500 ta mahallada faoliyat yuritayotgan jami 50 mingga yaqin “mahalla yettiligi” uchun joylarda tashkil etilgan o‘quv seminarlari haqidagi ma’lumotlar Turkiy davlatlar tashkiloti a’zolari vakillarida qiziqish uyg‘otdi. Yangi tayinlangan tuman hokimlari va ularning jamoalari uchun agentlik tomonidan tashkil etiladigan ekspress treninglar ham hamkorlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Turkiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining izchil rivojlanib borishida davlat xizmatchilari salohiyatini xorijda oshirish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Kelajak liderlari” dasturi ishtirokchilarining Turkiyada inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha malaka oshirishi ijobiy samara bermoqda.

Ayni paytda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi inson resurslarini rivojlantirishga doir hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida bildirilgan har qanday taklif va tashabbusni qo‘llab-quvvatlagan holda davlat xizmatiga nomzodlarni baholash va iqtidorlilarni izlash maqsadida kompetensiyalar modelini ishlab chiqishda o‘zaro hamkorlik qilmoqda.

Mustahkam tarixiy rishtalar, o‘xshash til, mushtarak madaniyat va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllangan Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylangan. Chunki tashkilotga a’zo davlatlarni do‘stlik va ishonchli sheriklik aloqalaridan tashqari o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlar ham bog‘lab turibdi. Hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intellektning joriy etilishi tashkilotga a’zo davlatlar oldiga yangi-yangi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoit davlatlarimizning hamkorlik borasida hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishni taqozo etmoqda.

Kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish va ularni rivojlantirish borasidagi hamkorlik Turkiy davlatlar tashkilotining ulkan salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq tadbirlarni mahalla darajasiga tushib, aholi orasiga chuqur kirib borgan holda tashkil etishga alohida e’tibor qaratilyapti. Jumladan, mahallalar o‘rtasida “Eng toza mahalla” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Davlat dasturi — amalda





Boshlanishi 1-betda

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Yevropa mintaqaviy byurosi ma’lumotida keltirilishicha, Markaziy Osiyo mamlakatlarida qayd etilayotgan kasalliklarning qariyb 15 foizi ana shunday omillar oqibatida yuzaga kelmoqda. Mintaqada yiliga 1,4 million kishi shunday muammolar tufayli hayotdan ko‘z yummoqda. Bunday global muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish va inson salomatligi hamda jamiyat rivojiga zarar yetkazishining oldini olish uchun hamkorlik va hamjihatlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni kengaytirish lozim.

Prezidentimiz xalqaro minbarlarda so‘zlagan nutqlarida bu masalalarga doimiy e’tibor qaratib, mintaqamizda va dunyoda ekologik muvozanatni ta’minlashda dunyo ahlini birdamlik va hamjihatlikka chorlab keladi. Shu bilan birga, yurtimizda ekologik muvozanatni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida keyingi yillarda muhim dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu yil 21-oktabr kuni davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti — “Green University”ga tashrifi, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, ulardan elektr energiyasi va mahsulot ishlab chiqarish loyihalari taqdimoti bilan tanishish jarayonida ekologik muvozanatni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishish bilan bog‘liq masalalar yana bir karra kun tartibiga ko‘tarildi. Shu kuni Prezidentimiz raisligida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham yurtimizda yashil hududlarni kengaytirish, xalqimiz sog‘lom va uzoq umr kechirishi uchun qulay ekologik muhit yaratish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Har bir insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda alohida bobda mustahkamlangan. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatlari belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o‘tish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2030-yilga borib, mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmon barpo etildi.

O‘zbekistonning bu boradagi sa’y-harakatlari va xayrli tashabbuslarini jahon hamjamiyati ham qo‘llab-quvvatlamoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish”, “Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” kabi muhim rezolyutsiyalar bir ovozdan qabul qilindi.

Yurtimizda barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, yer, suv, havo musaffo bo‘lishini ta’minlash, chiqindilarni yig‘ish, saralash, qayta ishlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida bu yo‘nalishdagi ishlar izchillik bilan davom ettirilyapti.

YASHILLIK YARASHGAN MANZILLAR

Tadqiqotlarga ko‘ra, bir kunda bir kishining kislorodga ehtiyojini qondirish uchun 22 ta daraxt kerak. “Yerning o‘pkasi” bo‘lgan bu yashil boylik faqat insonning nafas olishiga xizmat qilish bilan cheklanmaydi, daraxtlarning hayot muvozanatini ta’minlashda ham hissasi ko‘p. Masalan, daraxt tuproq namligini saqlab, yemirilishining oldini oladi. Gavjum shaharlarda shovqinni kamaytirib, tabiatga, insonga va butun tirik mavjudotga sokinlik baxsh etadi. Havo ifloslanishini kamaytirish, tirik mavjudotlarni quyoshning zararli nuridan asrashda ham uning o‘rni muhim.

Qolaversa, atrofimizni o‘rab turgan yashil olam ko‘plab jonzotlar, hasharotlar uchun uya va ozuqa manbaidir, daraxtlar bo‘lmasa, ularning yashashi qiyin. Shunday ekan, daraxtlarni asrash, o‘rmonlarni ko‘paytirish, mavjudlarini asl holicha saqlash insoniyatning asosiy vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Keyingi yillarda yurtimizda keng quloch yoygan “Yashil makon” umummilliy loyihasi nafaqat bugungi hayotimiz, balki kelajak taraqqiyotimizning ham asosi bo‘lib qoladigan ezgu tashabbusdir. Hududlarni ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirishda barchani hamjihatlikka undayotgan ushbu loyiha yildan yilga ommalashib borayotgani quvonarli.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining ma’lum qilishicha, ushbu loyiha doirasida 2024-yil bahorda yurtimiz bo‘yicha 138 million tup ko‘chat ekildi. Hududlarda vazirlik, idora va mahalliy hokimliklar tomonidan 257 ta yashil bog‘ barpo etilib, ularning umumiy soni 517 taga yetkazildi.

“Ochiq byudjet” tizimi orqali “Mening bog‘im” loyihasi ishga tushirildi. Fuqarolar tomonidan tashabbus bildirilgan 738 ta loyihadan 215 tasi g‘olib deb topilib, 48,7 milliard so‘m moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi.

Joriy yil yakuniga qadar “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kuzgi ko‘chat ekish mavsumida 75 million tup daraxt va buta ekiladi, 134 ta yashil bog‘ barpo etiladi. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida g‘olib deb topilgan 215 ta tashabbusning loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi va kuzgi ko‘chat ekish mavsumida yashil bog‘lar, yashil jamoat parklarini barpo etish ishlari boshlanadi.

Yil yakuniga qadar Orolbo‘yi mintaqasida 300 ming gektar, shundan Qoraqalpog‘iston Respublikasida 200 ming, Navoiy viloyatida 50 ming, Buxoro viloyatida 40 ming va Xorazm viloyatida 10 ming gektar maydonda yashil qoplamalar barpo etiladi. Joriy yil yakuniga qadar atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning I va II toifasiga mansub sanoat hamda yirik qurilish materiallari, energetika va metallurgiya korxonalari tomonidan o‘z va tutash hududlarda 10 million tup daraxt ko‘chati ekiladi va yashil belbog‘lar yaratiladi.

Keyingi yillarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimiga ham alohida e’tibor qaratilib, izchil chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Hozir yurtimizda 7 ta davlat qo‘riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi, 12 ta tabiat bog‘i, 1 ta milliy bog‘, 11 ta tabiat yodgorligi, 2 ta biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo‘riqxonasi, 1 ta Buxoro ixtisoslashtirilgan jayron pitomnigi mavjud.

Joriy yil yakuniga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni yanada kengaytiriladi. Zomin tog‘lari ekotizimini UNESCO Jahon tabiiy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritish uchun nomzodnoma taqdim etiladi. Jayron pitomnigidan 30 bosh turkman quloni Qoraqalpog‘istonga, quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatidan 20 bosh buxoro bug‘usi to‘qayzorlarga ko‘chiriladi.

O‘rmonlar maydoni ham kengayib boryapti. Jumladan, joriy yilning olti oyida foydalanilmayotgan 3500 gektar yer o‘zlashtirilib, o‘rmon fondidagi 220 ming gektar maydonda o‘rmonzor barpo etildi. Xususan, Orol dengizining qurigan tubi va mintaqasida 215 ming gektar, tog‘ va tog‘oldi hududlarda 2 ming gektar, boshqa hududlarda 3 ming gektar maydonda o‘rmon barpo etish va qayta tiklash tadbirlari bajarildi.

O‘rmon tadbirlari uchun cho‘l va boshqa turdagi o‘simliklarning 771 tonna urug‘i tayyorlandi. 5 million tup tut niholi va ko‘chati yetishtirildi. Xo‘jaliklarda 318 gektar niholxona va 350 gektar maydonda tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxt-butalar ko‘chatxonalari tashkil etildi. Cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarda cho‘llanish va qum ko‘chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish maqsadida 140 gektar maydonda himoya o‘rmonzorlari (ihota) barpo etildi. 2820 gektarda dorivor va ozuqabop o‘simliklar ekilib, 663 tonna dorivor va ozuqabop o‘simliklar xomashyosi tayyorlandi.

Joriy yil yakuniga qadar o‘rmon fondining sug‘orish imkoniyati mavjud yerlarida ming gektar tez o‘suvchi daraxtlar plantatsiyalari, tog‘ va tog‘oldi hududlarida 500 gektar maydonda himoya daraxtzorlari barpo qilinadi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan foydalanilmayotgan 3,5 ming gektar yer o‘zlashtiriladi hamda respublikaning o‘rmon bilan qoplanganlik darajasi 8,1 foiz (3 million 650 ming gektar)ga yetkaziladi. Cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarda cho‘llanish va qum ko‘chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida 2400 gektar yerda himoya o‘rmonzorlari (ihota) barpo etiladi. Tuman va shaharlarda 134 ta yashil bog‘ barpo etiladi. Sohada 3500 ta doimiy va mavsumiy ish o‘rni yaratiladi.

33 MINGDAN ZIYOD SHAXS EKOLOGIK QONUNCHILIK TALABINI BUZGAN

Bugun ekologiya mavzusiga oid targ‘ibotlarda tabiatning har bir ne’mati, jumladan, suvni tejash haqida ko‘p gapiriladi. Suvni ifloslantirish gunoh ekani bolaligimizdan uqtiriladi. Biroq bu o‘gitlarga hamma ham to‘la amal qiladi deb bo‘lmaydi. Nafaqat shaharlarda, hatto chekka qishloqlarda ham ming mashaqqatlar evaziga xonadonlarga yetkazib berilgan ichimlik suv huda-behuda isrof qilinishi uchrab turgani buning isboti. Qolaversa, qonunga zid ravishda daraxt kesish, suv manbalarini ifloslantirish, chiqindini belgilanmagan joyga tashlash kabi ekologik qonunbuzarliklar uchrab turadi.

— Bunday holatlarning oldini olish maqsadida o‘tkazilgan ekologik nazorat tadbirlarida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan 33 ming 378 shaxs aniqlandi, — deydi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari Yusufbek Kazbekov. — Qonunbuzarlarga 35,5 milliard so‘m ma’muriy jarima va yetkazilgan zarar hisoblanib, 28,5 milliard so‘m undirildi. Mingdan ortiq korxona va 80 mingdan ortiq fuqaro o‘rtasida sohaga oid profilaktika tadbirlari o‘tkazildi. 75 holat bo‘yicha 160,6 milliard so‘mlik da’volar yuzasidan qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha materiallar prokuratura organlariga taqdim etildi, shundan 38 holatda jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Albatta, bunday ishlardan maqsad kimnidir jazolash emas, avvalo, jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, tabiatni muhofazalashni har bir insonning kundalik



yumushiga aylantirishdir. Bu borada ekologik targ‘ibot ishlari bilan birga havo, suv va tuproqni muhofaza qilish borasida amaliy ishlar ham kengayib borayotir. Misol uchun, havoni muhofaza qilish va monitoring yo‘nalishida atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi 11 ming 296 ta inshoot davlat ekologik ekspertizasidan, “Toza havo” oyligi davomida 205 mingta avtotransport vositasi ekologik nazoratdan o‘tkazildi.

52 ta yirik sanoat korxonasida chang-gaz tutib qolish uskunalari o‘rnatildi va mavjudlari modernizatsiya qilindi. Toshkent shahrida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasi o‘tkazilmoqda.

Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish yo‘nalishida 37 ta korxonada lokal oqova suv tozalash inshootlari qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. Bosh prokuratura bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi Salar, Bektemir va Bo‘zsuv inshootlariga me’yoridan ortiqcha ifloslantirilgan moddalar chiqaruvchi 44 ta korxonaga nisbatan chora ko‘rildi va 12 ta korxona oqova suv tarmog‘idan uzildi.

Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 680 gektar yer rekultivatsiya qilindi. 797 ta avtomobil yuvish shoxobchasi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga o‘tkazilib, 1150 ta shoxobcha oqova suv tindirgichlar bilan jihozlandi. Natijada hosil bo‘layotgan oqova suvlarning 60 foizi tozalandi va suv resurslari tejaldi. Joriy yil yakuniga qadar 56 ta korxonada lokal oqova tozalash inshootlari quriladi va mavjudlari rekonstruksiya qilinadi.

CHIQINDINI NOQONUNIY JOYGA TASHLAYOTGANLAR KIMLAR?

Ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishga erishishga to‘siq bo‘layotgan yana bir muammo chiqindi bilan bog‘liq. Insonning hayot faoliyati va sanoat rivoji natijasida paydo bo‘layotgan chiqitlar bugun katta hududlarni egallab, tabiat sofligiga ta’sir o‘tkazmoqda. Qolaversa, tuproqqa tashlanayotgan ba’zi zararli chiqindilar yerda uzoq vaqt saqlanib, ekologik muvozanat va inson sog‘lig‘iga zarar yetkazyapti. Bunday muammolarning oldini olish uchun chiqindini yig‘ish, saralash, qayta ishlash tizimini takomillashtirish zarur.

Prezidentimizning 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga zamin yaratdi. Hujjatda yillar davomida sohani boshqarish borasida to‘planib qolgan dolzarb muammolar yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi. Farmonga ko‘ra, to‘lov intizomini mustahkamlash maqsadida chiqindi bo‘yicha to‘lovlar elektr energiyasi to‘lovlari tizimi bilan bog‘lab qo‘yildi. Mazkur tizim yo‘lga qo‘yilishi bilan aholi tomonidan to‘lovlar miqdori bir oy ichida 20 foiz oshib, debitor qarzdorlikni keskin kamaytirishga erishildi.

Mamlakatimizda xususiy sektorning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada bugungi kunga kelib, sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatish 70 foiz xususiy sektor tomonidan amalga oshirilmoqda.

Sanitar tozalash xizmatlari uchun aholi to‘lovlarida qulaylik yaratish va debitor qarzdorlikni qisqartirish, elektron to‘lov tizimida iste’molchilar to‘g‘risida to‘liq va aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun “Toza makon” billing elektron davlat axborot tizimining dasturiy ta’minoti ishlab chiqildi. Mazkur tizim Ichki ishlar va Adliya vazirliklari, bojxona va chegara organlari, Kadastr agentligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ma’lumotlar bazasi hamda “Elektron hukumat” dasturi bilan integratsiya qilindi. Shuningdek, 2024-yil 1-apreldan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari uchun mavjud qarzdorlik bartaraf etilganidan keyin notarial harakatni amalga oshirish va qarzdorlik to‘g‘risida SMS xabarnoma yuborish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Yangi tizim bir qator elektron to‘lov tizimlari bilan integratsiya qilindi.

Aholiga sifatli xizmat ko‘rsatilishi, chiqindilar o‘z vaqtida olib chiqib ketilishini ta’minlash maqsadida sanitar tozalash korxonalari tasarrufida mavjud 4194 ta avtotransport vositasidan 82,5 foiziga GPS qurilmalari o‘rnatildi. Endi mazkur qurilmalar Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi billing tizimiga bog‘lanishi natijasida ko‘rsatilmagan xizmatlar uchun asossiz to‘lovlar hisoblanishining oldini olib, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning mas’uliyatini yanada oshiradi.

Aholining sanitar tozalash xizmatlari bilan qamrab olinishi hajmini oshirish maqsadida joriy yilda Osiyo taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan umumiy qiymati 6,4 million dollarga teng 67 ta hamda markaz tomonidan umumiy qiymati 20,4 milliard so‘m bo‘lgan 30 ta texnika sanitar korxonalarga lizing shartlari asosida foydalanishga berildi.

— Tibbiyot chiqindilari maishiy chiqindilarga qo‘shib poligonga tashlanishi yana bir og‘riqli nuqtalardan edi. Bu havo va tuproq ifloslanishi, aholi o‘rtasida turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lardi, — deydi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi direktori Sharif Hasanov. — Bu muammoni bartaraf etish maqsadida AQSHning “Sayar” kompaniyasi bilan 115 million dollarlik to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Tibbiyot chiqindilarini yoqish orqali muqobil issiqlik energiyasi ishlab chiqarish borasidagi ushbu loyiha samarasida 1,5 milliard so‘mga yaqin byudjet mablag‘i tejalib, tabiatga zararli gazlar chiqarilishi keskin qisqaradi.

BAAning “Tadweer”, Xitoyning “China CAMC Engineering” va “Shanghai SUS Environment” hamda Rossiyaning “EkoVektor” kompaniyalari bilan aniq kelishuvlarga erishilib, umumiy qiymati 320 million dollar miqdorida investitsiya olib kirilishi kutilmoqda.

2024-2026-yillarda qattiq maishiy chiqindilarni saralash tizimini bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadida hududlarda ekologik toza materiallardan tayyorlangan, quyosh panellari o‘rnatilgan va barcha sharoitga ega 2 tadan, jami 28 ta chiqindi to‘plash shoxobchasi tashkil etilyapti. Ularda chiqindilarni qayta ishlanadigan, qayta ishlanmaydigan va oziq-ovqat toifalariga ajratgan holda saralab yig‘ish hamda sanitar tozalash korxonalari tomonidan sotib olish tajribasi yo‘lga qo‘yiladi.

Aholi tomonidan belgilanmagan joylarga chiqindi tashlanishining oldini olish ham ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yil boshidan buyon turli hududlarga 230 ta kuzatuv kamerasi o‘rnatildi. Bu borada aholi orasida tushuntirish va targ‘ibot ishlari ham olib borildi. Qoidabuzarliklar aniqlanib, hozirgacha 11 mingta shunday huquqbuzarlik qayd etilgan.

Bunday noqonuniy va nomaqbul ishga qo‘l urayotganlar kimlar degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Ularning barchasi biz bilan bir havodan nafas olib, yonma-yon yashayotgan kishilardir. Qo‘lidagi chiqindi to‘la qopni belgilanmagan joyga irg‘itib ketayotgan bunday odamlar tabiatni ifloslantirish orqali, avvalo, o‘zi, yaqinlari, qolaversa, o‘zgalar hayoti va salomatligiga ziyon yetkazishini anglab yetmasligi mumkinmi?

Albatta, bunday holatlarda qonuniy chora ko‘riladi. Ammo tabiatni asrashda jazo va jarima solishdan ko‘ra, inson qalbida tabiatga mehr uyg‘otish samarali vositadir.

Barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq tadbirlarni mahalla darajasiga tushib, aholi orasiga chuqur kirib borgan holda tashkil etishga alohida e’tibor qaratilyapti. Jumladan, mahallalar o‘rtasida “Eng toza mahalla” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Bu tadbirlarning barchasi xalqimizni tabiat musaffoligini asrash, barqaror rivojlanishga erishish bilan bog‘liq ezgu maqsadlar yo‘lida birdamlik va hamjihatlikka undaydi. Zero, insoniyatning kelajak taraqqiyoti, avvalo, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir muammolarning oqilona yechimiga bog‘liq.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Aholi va tadbirkorlik subyektlari ishtirokida raqobatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muammo va takliflarni eshitish bo‘yicha “Biz sizni eshitamiz” muloqot tizimi davom ettiriladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Islohot odimlari

IQTISODIY O‘SISHDA RAQOBAT

UNGA NIMALAR SALBIY TA’SIR KO‘RSATMOQDA?





“So‘nggi yillarda raqobatni ta’minlashga qaratilgan nazorat bilan qamrab olingan 114 mingta tanlov va tender savdolarining qariyb 40 foizida raqobatni cheklash bo‘yicha harakatlar aniqlangan.



Otabek USMONOV,
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi maslahatchisi



Sog‘lom raqobat rivojlanish kafolati ekanini hamma biladi. Shu bois, mamlakatlar iqtisodiyotda imkon qadar bunga sharoit yaratishga harakat qiladi. Shu jihatdan yurtimizda sog‘lom raqobat muhitini ta’minlashga qaratilgan bir qancha institutsional islohotlar amalga oshirilayotir. Ayniqsa, so‘nggi paytlardagi ishlar O‘zbekistonda raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish borasida yangi davr boshlandi, deyishimizga asos bo‘ladi. Harqalay kunda-kunora raqobatni ta’minlash bo‘yicha belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinmagani bois, choralar ko‘rilayotgani xususida xabarlarga ko‘zimiz tushyapti. Amaliy sa’y-harakatlar ancha jadallashgan.

Monopoliyaga qarshi kurashish organining mavqei Konstitutsiya darajasida halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratib, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi, deya belgilab qo‘yilgani katta qadamlardan biri bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi vakolatli davlat organi sifatida bevosita Prezident va Oliy Majlis Senatiga hisobdorligi, faoliyatini davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshirishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Bularni mamlakatimizda monopoliyaga qarshi kurashish, raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasiga berilayotgan e’tiborning amaliy ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining raqobatga ta’sirini baholashning majburiy tizimi joriy etilib, 116 turdagi subyektlari faoliyat yuritib kelayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi korxonalarning ta’sis etilishiga cheklov kiritildi. Raqobatga ta’sirini baholashdan o‘tkazgandan so‘ng korxonalarda davlat ishtirok etishi bo‘yicha qaror qabul qilish mexanizmi joriy etildi.

Tovar va moliya bozorlarida teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 30 ga yaqin sohada soliq va bojxona imtiyozlari hamda 13 ta tarmoq bo‘yicha eksklyuziv huquqlar bekor qilindi.

30 dan ortiq tovarlar bozoriga tadbirkorlarning kirishi erkinlashtirilib, monopoliya holatidan chiqarildi. Ustun mavqega ega korxonalar soni 20 foiz hamda davlat ishtirokidagi korxonalar soni 30 foiz kamaydi.

litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor etish tartibotiga o‘tkazildi.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida tovar bozorida 5 va undan ortiq xususiy sektor



Monopol va yuqori likvidli mahsulotlarni xarid qilishda tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish maqsadida tovar-xomashyo birjalarida majburiy tartibda realizatsiya qilinadigan tovarlar soni 46 taga yetkazildi. Bugun 200 dan ortiq yirik monopoliya va davlat organlarida faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgan.

Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotidagi raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qancha tizimli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan raqobatga zid hujjatlar qabul qilish amaliyoti hozir ham mavjud. Ularda tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga zid 47 foiz normalar kiritilgani qayd etilgan.

Iqtisodiyotda davlatning ishtiroki hanuz yuqoriligicha qolmoqda. Bu, ayniqsa, tabiiy monopoliya subyektlarida yaqqol seziladi. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatiga bog‘liq kamida 15 ta tovar bozorida raqobatni rivojlantirish imkoni mavjud bo‘lsa-da, ushbu bozorlar hanuzgacha monopollashtirilgan holatda saqlanmoqda.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasida shaffoflik va samaradorlik yetarli darajada ta’minlanmagan. Davlat xaridlari yetarli darajada raqobatli tartibotlar orqali bajarilmayapti. Ya’ni ularning 55 foizidan ortiqrog‘i to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda raqobatni ta’minlashga qaratilgan nazorat bilan qamrab olingan 114 mingta tanlov va tender savdolarining qariyb 40 foizida raqobatni cheklash bo‘yicha harakatlar aniqlangan.

Soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiya va eksklyuziv huquqlar ko‘rinishidagi davlat yordamini taqdim etish maqsadga muvofiqligini aniqlash, uni berish tartibi hamda berilgan davlat yordamining samaradorligini baholash yo‘lga qo‘yilmagan.

Raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar hamda ustun mavqeni suiiste’mol qilish yuzasidan o‘tkaziladigan tahlillarning vakolatli organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlarini tekshirish sifatida baholanishi ushbu tahlillarni tezkor o‘tkazish va raqobat muhitini to‘laqonli baholash imkoniyatini cheklayapti.

Raqamli platformalar faoliyatiga nisbatan monopoliyaga qarshi tartibga solish vositalari ta’sirchanligi yetarli emas. Bu esa iste’molchilar manfaatlari kamsitilishi xavfini oshirmoqda. Asosiy turdagi iste’mol tovarlar importini nazorat qilish mexanizmi joriy etilmagan.

Bu kabi tizimli muammolar yechimi hamda mamlakatimizda sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash maqsadida qator strategik ishlarni bajarish rejalashtirilgan. Jumladan, har yili 20 dan ortiq tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini chuqur tahlil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib “qizil”, “sariq” va “yashil” guruhlarga ajratiladi. Raqobat rivojlanmagan tarmoqlar bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda manzilli ishlar qilinadi.

Tadbirkorlik subyektlariga tartibga solish yukini qisqartirish hamda ularning tovar va moliya bozorlariga erkin kirishidagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘riladi. Raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlarni tezkor aniqlash usullariga o‘tilib, ta’sirchanligi oshiriladi.

Aholi va tadbirkorlik subyektlari ishtirokida raqobatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muammo va takliflarni eshitish bo‘yicha “Biz sizni eshitamiz” muloqot tizimi davom ettiriladi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga binoan, respublikamizda davlatga tegishli 17 turdagi monopoliyani bekor qilish, ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb etish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog‘liq sohalarni saqlab qolish rejalashtirilmoqda.

Temir yo‘lda tashish, avtomobil yo‘llari qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlari xususiy sektorga o‘tkaziladi. Irrigatsiya, chiqindilarni qayta ishlash, ijtimoiy obyektlarda energetika va issiqlik ta’minoti tizimini boshqarish kabi monopol sohalarda xususiy sheriklik mexanizmi keng joriy qilinadi. Natijada iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushi 85 foizga yetkazilib, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxona soni 6 barobar kamaytiriladi.

Prezidentimizning 2024-yil 3-iyundagi “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida bir nechta yirik monopol korxonalarga berilgan maxsus (eksklyuziv) huquqlar bosqichma-bosqich bekor qilinishi belgilandi.

Qonunchilikdagi yangiliklar hamda mavjud muammolarni hal qilish va sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash borasidagi ishlar kelgusida iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi, mahsulot va xizmatlar sifati oshishiga turtki beradi.

Yangicha yondashuvlar

TOSHLOQ ENDI TOSHLOQ EMAS...



Toshloq tumanidagi Besholish dahasi asrlar davomida qurib-qaqshab yotgan, tosh-shag‘aldan iborat maydonlar edi. Yo‘l, suv, elektr, tabiiy gaz ta’minoti og‘ir muammolardan bo‘lib kelgan. Bugun ushbu maskan manzarasi shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Beton qoriyotgan, g‘isht terayotgan quruvchilar, yo‘lsozlar, qudratli texnika harakati bir zum bo‘lsa-da, to‘xtagani yo‘q. Bu bejiz emas, albatta.



Keyingi yillarda hududga sanoat tarmoqlari kirib kelishi, bu yo‘nalishdagi loyiha va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hayotbaxsh islohotlar yangidan yangi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini ko‘paytirish imkoniyatini bermoqda.

— Shu kunga qadar e’tibordan chetda bo‘lgan, tosh-shag‘aldan iborat, unumdorligi past 119 gektar ekin maydonida 7 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi, — deydi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Kamoliddin Umarov. — Bu yerlarga ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhim bo‘lgan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, yo‘l va yo‘laklar qurish ko‘lami kengayib bormoqda. Natijada tumanning sanoat salohiyati yuksalib, 140 dan ortiq istiqbolli loyiha ro‘yobga chiqarilyapti. Joriy yil yanvar-sentyabr oylarida barcha sanoat korxonalari tomonidan 1367,1 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlandi. Natijada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilning shu davridagiga nisbatan 8,4 foiz oshdi, eksport miqdori, geografiyasi kengaydi. Istiqbolli investitsiya loyihalarini ishga tushirish, xizmat ko‘rsatish, qurilish va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlanishi hisobiga joriy yilning shu kuniga qadar 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 709 fuqaroga 16 milliard 465 million so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Kam ta’minlangan, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan, ishsiz fuqarolar bandligini ta’minlash maqsadida 315,8 million so‘mlik asbob-uskunalar subsidiya asosida yetkazib berildi.

Toshloq tumani “Qanjirg‘a” mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Yoshlar” kichik sanoat zonasi Qirguli qir-adirlariga tutashib ketadi. Tosh-shag‘aldan iborat keng dalalarda hayot qaynaydi. Bu yerda qiymati 45 milliard so‘mdan ortiq 29 ta sanoat loyihasi amalga oshirilyapti. Natijada ichki va tashqi bozorda xaridorgir qurilish, mebel, kalava ip, plastmassa mahsulotlari, oziq-ovqat, mevani qayta ishlash yo‘nalishidagi yangi tarmoqlar ishga tushadi.

“Axshak acro universavdo” xususiy korxonasining avtomobillar uchun moy va antifriz ishlab chiqarish loyihasi shular jumlasidan. Yosh tadbirkor Rahmatillo Abdurahmonov rahbarligida yillik quvvati 9,5 ming tonna moy va antifriz ishlab chiqarishga mo‘ljallangan umumiy qiymati 3,5 milliard so‘mlik loyiha bajarilib,

20 ta ish o‘rni yaratildi. Istiqbolli loyihalar rivojiga ko‘ra, yana 4 gektar yerda aholi va yoshlar dam olish maskanlari qurish, yashil makonlar yaratish bilan bog‘liq ishlar qilinadi.



— Bolalikda tashlandiq, ovloq bu yerlarga yakka-yolg‘iz kelgani qo‘rqardik, — deydi korxona ishchisi G‘ayratjon Abdullayev. — Bundan besh-olti yil ilgari bu joylar shu qadar obod bo‘lib ketadi deb sira o‘ylamaganmiz. Bir necha yil xorijda ishladim. Mahallamizga yaqin hududda yangi korxona ochilganidan keyin o‘zga yurtlarda ishga borishga hojat qolmadi. Oyliklarimizni o‘z vaqtida olyapmiz, issiq ovqat, ishga kelib-ketish uchun transport xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

“Izmir textile” MCHJ tomonidan loyiha qiymati 8 million dollar bo‘lgan sun’iy ipdan mato ishlab chiqarish loyihasi doirasida qurilish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Uning ishga tushishi hisobiga 100 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Kichik sanoat zonalarida ish boshlagan, investitsiya jalb qilgan tadbirkorlik subyektlariga yer va mulk solig‘idan imtiyozlar berilgan. Bundan tashqari, yo‘l, tabiiy gaz, suv, elektr energiyasi bilan ta’minlash borasidagi ishlar mahsulot hajmi va sifatini oshirish, tannarxini arzonlatishga xizmat qilmoqda.

“Kelajak” kichik sanoat zonasida “Agro impex valley marketing” MCHJning trikotaj mahsulotlari to‘qish va tikish yo‘nalishidagi loyihasi bir vaqtning o‘zida 200 dan ortiq ish o‘rni yaratish imkonini berdi.

— Bu yerda ish boshlaganimizda quruq yerdan boshqa hech narsa bo‘lmagan, — deydi korxona ish yurituvchisi Ahmadjon Ibrohimov. — Endi hamma narsa o‘zgardi, yangi infratuzilma tarmoqlari qurildi. Ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish maqsadida so‘nggi rusumdagi to‘qish va tikish uskunalarini olib kelib ishga tushirdik. Ayni kunda yana 500 ta ish o‘rinli yangi tikuvchilik tarmog‘ini ochish bo‘yicha ishlayapmiz.

Uch farzandning onasi Gulnoza Tojiboyeva Besholish mahallasida yashaydi. Qishloqqa yaqin joyda ochilgan yangi korxonaga ishga kelib kam bo‘lmayotgani, oilasi, ro‘zg‘origa baraka kirganini bot-bot takrorlaydi.

— Besh million so‘mdan ziyod maosh olaman, — deydi zamonaviy dastgohlarni mahorat bilan boshqarayotgan to‘quvchi.

“Qo‘rg‘oncha” mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Qobil ota fayzi” oilaviy korxonasi bu yerga ko‘chib kelganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Santexnika quvurlari ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sarmoya doirasida 15 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

— Mahallamizdagi aholi xonadonlariga yaqin yerda ishlash ko‘plab qiyinchiliklarga sabab bo‘layotgandi, — deydi ish yurituvchi Iqboljon Maxsudov. — Yangi joyga ko‘chib o‘tishimiz hisobiga ishchi va ishlab chiqarish hajmi uch hissa oshdi. Ayni kunda umumiy qiymati 2 milliard so‘m bo‘lgan yangi loyiha ustida ishlayapmiz. Bu mahalliy xomashyodan xalq xo‘jaligi tarmoqlari uchun kerakli santexnika va uy jihozlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, eksportga yo‘naltirish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda sanoat hududidan qo‘shimcha yer oldik.

Istiqbolli loyihalardan yana biri xitoylik sarmoyadorlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu yerda yangi metallurgiya zavodi qurilishiga tamal toshi qo‘yildi.

Xitoyning “Shandong Aipurui Steel Plate Co. Ltd” kompaniyasi hamkorligidagi loyiha uch bosqichdan iborat bo‘lib, umumiy qiymati 120 million dollardan ortiq, 500 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Zavodning ilk bosqichi 2025-yilning dastlabki choragida ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan.

Tadbirkor Nodirjon Ro‘ziboyevning aytishicha, sifatli va raqobatbardosh qayta ishlangan temir mahsulotlari ichki ehtiyojlarni qoplash bilan birga, tashqi bozorga ham eksport qilinadi. Ayni kunda “Fargona metallurgiya zavodi” O‘zbekiston — Xitoy qo‘shma korxonasi ro‘yxatdan o‘tkazilib, faoliyatini boshladi.

Bugun Isfayramsoy qirg‘oqlari bo‘ylab yastanib ketgan dala-dashtda yangi hayot nafasi ufurib turibdi. Bu xalqimizga xos yaratuvchilik, bunyodkorlik ko‘lamlari kengayib, turmush tarzi va farovonligi ortib borayotganidan dalolat.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI MARKAZ BILIMDON O‘QUVCHINI HAM, UNING USTOZINI HAM QO‘LLAB-QUVVATLAYDI

Inson ilm bilan ulug‘lanadi, u orqali ko‘zlagan maqsadlariga erishadi. Bugun har tomonlama rivojlangan dunyoda yashayapmiz. Yangidan-yangi kashfiyotlarga qo‘l urilmoqda. Shu bois, har bir mamlakat, jamiyat taraqqiyoti ilm-fan rivoji bilan uzviy bog‘liq. Ilmga qaratilayotgan e’tibor davlatning ertangi kunini belgilab beradi. Vaqt bilan hamnafas yashash, bugunning yangiliklaridan boxabar bo‘lish har qachongidan dolzarb.





Bugun yaratilgan sharoitlar natijasida yoshlarimiz zamonaviy, barcha qulaylikka ega bilim dargohlarida ta’lim olib, qobiliyati va iqtidorini yuzaga chiqarish, xalqaro fan olimpiadalari, ko‘rik-tanlovlar, sport musobaqalarida yuqori o‘rinlarni egallash, rivojlangan davlatlardagi nufuzli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 30-sentabrdagi “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Qarorga ko‘ra, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzurida davlat muassasasi shaklida Fan olimpiadalari markazi tashkil etiladi.

— Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda, — deydi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori Alisher Ubbiyev. — Mazkur qaror ham yosh avlodning ilm egallashga ishtiyoqini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Markazni tashkil etishdan asosiy maqsad yoshlarni jahon miqyosidagi olimpiadalarga tayyorlashda oddiy va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda texnikum va kollejda bu jarayonga yondashuv bir xil emasligi, ish turli standartlarda yuritilayotganidir. Bu tizim endi yaxlit holda, yagona standartlar asosida yo‘lga qo‘yiladi. Qobiliyatli hamda fanlarni chuqur o‘rganishga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va seleksiya qilish, iqtidorini yanada rivojlantirish, o‘quvchilarni fan olimpiadalariga maqsadli tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratish, yuqori natijalarga erishgan o‘g‘il-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar markazning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi.

2025-yildan Fan olimpiadalari markazi tomonidan 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olimpiadalarda yuqori natijalarni qayd etgan iqtidorli o‘g‘il-qizlar bazasi shakllantiriladi va ularni xalqaro olimpiadalarga maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Har bir fan yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlari, adabiyotlar, metodik tavsiyalar, qo‘llanmalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlovchi trener-o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratiladi, ularga yangi metodikalar o‘rgatib boriladi. Fan olimpiadalari bo‘yicha milliy terma jamoalarning xorijiy davlatlar terma jamoalari bilan qo‘shma yig‘inlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchilar uchun xalqaro olimpiadalarda ruhiy bosimni yengish bo‘yicha seminarlar hamda ruhlantiruvchi treninglar, iqtidorli yoshlar uchun “intellektual oromgohlar” tashkil etiladi.

— Xalqaro olimpiadalar g‘oliblari, ularning o‘qituvchilari va terma jamoalar rahbarlariga belgilangan miqdorda bir martalik pul mukofoti taqdim etiladi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i Umid Rahmonov. — Xususan, terma jamoalar rahbarlari nufuzli xalqaro olimpiadalarda qo‘lga kiritilgan har bir oltin, kumush va bronza medal uchun bazaviy hisoblash miqdorining 35, 25, 15 barobari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Terma jamoalar rahbarlarini pul mukofoti bilan siylash 2027-yilga qadar davlat byudjetidan, 2027-yildan boshlab markazning byudjetdan tashqari mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab asosiy fan olimpiadalarining hududiy va respublika bosqichlari hamda xalqaro olimpiadalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilar, ularning o‘qituvchilari va terma jamoalar rahbarlariga to‘lanadigan pul mukofoti va beriladigan sovg‘alar daromad solig‘idan ozod etiladi.

— 2019-yili xalqaro fan olimpiadasida ishtirok etganman, — deydi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchisi Mohira Boltayeva. — Aynan o‘sha yildan g‘oliblarga pul mukofoti berish boshlangan. Ungacha bunday rag‘batlantirish tizimi yo‘q edi. Prezidentimizning mazkur qarori yoshlarni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Eng asosiysi, yangi O‘zbekiston yigit-qizlarini izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, yoshlar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom raqobat muhiti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Terma jamoalar rahbarlari, kuzatuvchilari va o‘quvchilarning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq, jumladan, sutkalik, yashash, sug‘urta va transport xarajati davlat byudjetidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan mablag‘ hisobidan qoplanadi.

Xalqaro fan olimpiadalarida qatnashish uchun jalb etiladigan o‘quvchilar o‘quv yig‘inlari davrida davlat byudjeti hisobidan bepul oziq-ovqat va yotoqxona bilan ta’minlanadi.

2025-yil 1-dekabrga qadar xalqaro va mahalliy fan olimpiadalari natijalarining doimiy statistikasini yuritish, onlayn fan olimpiadalari tashkil qilish va o‘tkazish hamda olimpiadalar ishtirokchilarining ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beruvchi elektron platforma yaratiladi.

Ushbu qaror yoshlarning ilm-fanni o‘zlashtirishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, yurtimiz dovrug‘ini dunyoga keng yoygan buyuk ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



DAVR TALABLARIGA JAVOB BERADIGAN AVLOD

Ularni biz — pedagoglar tarbiyalaymiz

Hayotimiz farovonligini oshirish va porloq kelajagimizni yaratish ta’lim taraqqiyoti hamda farzandlarimiz tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim har bir davlatni qudratli, millatni esa buyuk qiladigan eng muhim omildir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zamonaviy, bugungi kun talablariga javob beradigan, vatanparvar kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimi sifati va samaradorligini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish, sohani jadal rivojlantirish masalasiga yangicha yondashilmoqda.

Yosh avlod ta’lim-tarbiyasini ustuvor vazifa sifatida belgilagan millat kelajagining poydevori mustahkam, ertasi kafolatlangan bo‘ladi. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon, jahon bozoridagi keskin raqobat va yuqori malakali kadrlarga talabning ortib borayotgani ushbu sohada ham tobora yangi islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu tabiiy hol, albatta.

O‘tgan davrda o‘quvchilarda yuqori bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagoglarning o‘z salohiyatini to‘la yuzaga chiqarishini ta’minlash, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni jahon standartlari asosida takomillashtirish, ta’lim dargohlarida zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha farmon va qarorlar imzolanmoqda. Bundan tashqari, ta’lim sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar amaliyotga joriy etilmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun buning yaqqol isbotidir. Mazkur qonun ilk marta 1992-yili qabul qilindi, 1997-yilda yangilandi. Oradan shuncha vaqt o‘tib yangi tahrirda qabul qilinishi esa sohadagi yirik islohotlardan biri bo‘ldi. Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizning buguni va ertasi uchun muhim mazkur huquqiy hujjat bilan tanishib, amin bo‘ldikki, unda bugun yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarish va yangiliklar, islohotlar o‘z ifodasini topgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda



davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlashi belgilangan.

> **Joriy yil 1-fevral kuni qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun bilan pedagog xodimning jamiyatdagi maqomini yuksaltirish, uning faoliyati bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asos va kafolatlari yaratildi.**

Ularning huquqlari, majburiyatlari, ular faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Pedagoglarni lavozim majburiyati va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, yig‘ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish taqiqlandi. Davlat ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko‘rikdan bepul o‘tishi ko‘zda tutildi. Pedagoglarni yangi turdosh fan bo‘yicha qayta tayyorlash davlat byudjetidan amalga oshirilishi kafolatlandi.

O‘quvchilarning iqtidori va qobiliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha mutlaqo yangicha mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, ta’lim jarayoniga ilg‘or metodlarni qo‘llash, zamonaviy bilimlar va chet tillarni puxta o‘zlashtirishi uchun Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, Temurbeklar maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu o‘quv maskanlari yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Sohadagi keng ko‘lamli islohotlarning samarasi haqida yana bir hayotiy misol. Yaqin-yaqingacha ham farzandlarimizni xususiy maktablarda o‘qitish xayolimizga kelmagandi. Endi bu kabi maktablar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Ularga nodavlat maktablar ko‘rsatadigan ta’limga oid xizmatlar uchun ota-onalar va farzandlikka oluvchilarga soliq imtiyozlari berildi. Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida ushbu soha jadal rivojlanmoqda. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti paydo bo‘lmoqda. Yetuk kadrlar va bilimli o‘quvchilar soni ortmoqda. Bu soha taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Ta’lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omildir. Mamlakat va millat kelajagi taqdiri islohotlar natijasi, yosh avlodning ertaga davr va taraqqiyot talablariga javob bera olishiga bog‘liq.

Gulyora SHUKUROVA,
o‘qituvchi

Salomatlik

Sil — insoniyat tarixidagi “yoshi ulug‘” xastaliklardan. U turmush tarzi haminqadar bo‘lgan qishloqlar va oilalarda “gullab-yashnagan”. Ovqatga qorni to‘ymagan, och-nahor odamlar unga nishon bo‘lgan va tibbiyot chorasizligi sababli ko‘plab odamlarning yostig‘i qurigan. U haqda xalq orasida “yo‘qsillar xastaligi” iborasi yurishi shundan qolgan bo‘lsa, ajab emas.
Bugun mamlakatimizda sil kasalligiga qarshi ta’sirchan kurash olib borilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2023-yil 20-yanvardagi “2023-2026-yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bunga qadar bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni to‘ldirish barobarida, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda.



BEMORDA ISHONCH BO‘LSA,

HAR QANDAY KASALLIKNI DAVOLASH MUMKIN

“Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar”

Buxoro viloyatida ixtisoslashtirilgan ftiziatriya xizmati ko‘rsatishda katta tajriba to‘plangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aholi orasida kasallik tarqalishining oldini olish uchun xastalik o‘choqlarini vaqtida aniqlash va bartaraf etishda eng zamonaviy diagnostika apparatlari hamda kuchli bilim va malakaga ega mutaxassislar muhim ahamiyat kasb etyapti.

Viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi 210 o‘ringa ega. Oltita davolash bo‘limida silning ta’sirchan, rezistent turlari va o‘pkaning nospetsifik kasalliklari bilan og‘riganlar, xastalikda gumon qilinganlar, qo‘l, oyoq, umurtqa hamda tanosil yo‘llaridagi sildan aziyat chekayotgan bemorlar davolanadi. Bolalar uchun ham alohida bo‘lim mavjud.

Markazda Buxoro davlat tibbiyot institutining ftiziatriya kafedrasi ham joylashgan. Klinik va bakteriologik laboratoriyalar ishlab turibdi. Hududiy laboratoriyalar Navoiy va Qashqadaryo viloyatlariga ham xizmat ko‘rsatadi. 100 qatnovga mo‘ljallangan poliklinika ham bor.

2023-yilning oxirlarida markazda sil bilan kasallanishga moyil bo‘lgan guruhga mansub bolalarda zararlanish darajasini aniqlash maqsadida QuantiFERON-TB Gold Plus sinamasini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi va 100 ta test o‘tkazildi. Diaskintest tekshiruvlariga 675 bola jalb qilindi.

Aynan o‘sha yili davlatimiz qo‘llab-quvvatlovi bilan “O‘pka salomatligi” mobil kompleksi xarid qilindi. Kompleks tarkibidagi mobil rentgen hamda sun’iy intellekt tashxis uskunasi yordamida 4500 dan ortiq fuqaro tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazildi va muolajalarga qamrab olindi.

Viloyatda sil va uning rezistent turini aniqlashda genmolekulyar tashxislash usulidan keng foydalanilmoqda. Buning uchun balg‘am namunalarini tuman va shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalaridagi ftiziatriya laboratoriyalariga yetkazishning logistikasi tashkil qilingan. Faol sil bemorlarini davolashda yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti samarali bajarilmoqda. Bugun bolalar orasida o‘pka yemirilishi bilan bog‘liq patologiyalar deyarli yo‘q. Bu ham bir yutuq.

Yog‘och binolarda bemor ko‘rilardi

So‘nggi yillarda markaz qiyofasi tubdan o‘zgardi. Bunga qadar ftiziatrlar ohori to‘kilgan yog‘och binolarda bemorlarni qabul qilgan, davolagan. Tibbiy apparatlar ham bugungidek takomillashmagan edi. Shundan bo‘lsa kerak, ilgari diplomini qo‘liga olgan uncha-muncha yosh kadr ftiziatr bo‘lishga oshiqmagan. Ammo bugun vaziyat mutlaqo boshqacha. Bu yerda keng ko‘lamdagi ishlar bajarildi. Qisqa muddatda diagnostika va davolash bo‘limlari uchun zamonaviy binolar qurilib, foydalanishga topshirildi. Zarur tibbiy jihoz va apparatlar bilan ta’minlandi. Bemorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq elektronlashtirilgan. Bu xastalar bilan ishlashda qulay imkoniyat yaratmoqda.

Birlamchi bo‘g‘in hushyorligi juda muhim

Kasallikning oldini olish va davolashda birlamchi bo‘g‘inda ishlayotgan tibbiyot xodimlarining faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ba’zi hollarda bemorlar kasallikni o‘tkazib yuborgan pallada murojaat qiladi. Qandli diabet, oshqozon yarasi kabi qator yo‘ldosh kasalliklari bor kishilar uchun esa sil yanayam og‘ir kechadi. Natijada o‘pka yemirilishi bosqichida markazga kelgan bemorni saqlab qolish shifokor uchun imkonsiz. Vaholanki, kasallik erta aniqlanganida profilaktika tadbirlari samarasi yuqori bo‘ladi. Bugun tibbiyot muassasalarida silni davolash — bepul. Dori-darmondan tortib, uch mahal ovqat xarajatigacha davlat tomonidan qoplanyapti.

— Birlamchi bo‘g‘inda ftiziatrik hushyorlikni hali talab darajasida deb bo‘lmaydi. Aksariyatida “markaz shug‘ullanyapti-ku, shu yetadi”, degan loqayd tasavvur shakllangan. Vaholanki, profilaktika quyi bo‘g‘in zimmasidagi vazifa, — deydi markazning tashkiliy-uslubiy bo‘lim mudiri, oliy toifali ftiziatr Jamshid Rahimov. — Insonda kasalliklarga qarshi tug‘ma immunitet bo‘ladi. Silga qarshi immunitet inson organizmida mavjud emas. Mutaxassislar sun’iy immunitet hosil qilish uchun chaqaloq tug‘ilganining ilk kunlaridayoq BSJ emlash o‘tkazadi. Kasallikning sezgir, rezistent va barcha doriga rezistent turlari mavjud. Xastalik so‘nggi turiga o‘tmasligi uchun shifokorlar jonini jabborga berib ishlayapti.

Viloyatning g‘arbiy tumanlarining biridan kelgan fuqaroda sil kasalligi aniqlangach, tezda davolash harakati boshlanadi. Lekin unda xastalik aniqlanganidan norozi turmush o‘rtog‘i janjal ko‘tarib, ko‘ngliga tegadigan gaplarni gapiradi. Alamiga chiday olmagan erkak o‘z joniga qasd qiladi. Shu vajdan sildan davolanayotgan bemorlar uchun ruhiy xotirjamlik birinchi o‘rinda turishi kerak. Bunday bemorlar daraxtdagi so‘nggi yaproqdek nozik bo‘lishi ham bejiz emas. To‘g‘ri ovqatlanish va dorilarni o‘z vaqtida ichishga rioya qilish muolaja kafolatini ta’minlaydi.

Ba’zilar silga davo yo‘q deb o‘ylaydi, aslida-chi?

Bir paytlar silga chora bo‘lmagan. Lekin hozir ham shu gapga ishonadigan bemorlar bor. Shifokorlar aksariyat hollarda yoshi ulug‘ bemorlar bilan ishlashda qiynaladi. Sog‘ayishiga ishonch hosil qildirish, kezi kelganda, igna bilan quduq qazishdek mashaqqat. Biroq tibbiyotning imkoniyatlari shu qadar kengayib ketdiki, bugun sil kasalligi o‘pka va o‘pkadan tashqari a’zolarda samarali davolanyapti.

Kasallikning tashilishida migratsiyaning ham o‘rni borligini unutmaslik kerak. Ba’zida xorijdan kasallik bilan kelib, markazga murojaat qilgan, davolash kurslarini to‘liq tugatmay, yana kelgan joyiga ravona bo‘lgan vatandoshlarimiz ham uchrab turadi. Ular o‘zlarini, yaqinlarini va atrofdagilarni xatarga qo‘yayotganini, afsuski, bilmaydi.

Ayrim mutaxassislarga ehtiyoj bor

Ftiziatr mutaxassislari rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirib, silni davolashda katta natijalarga erishmoqda. Shunga qaramay, ftiziopediatr, ftiziourologlarga markazda ehtiyoj bor. Ishlab turganlarining aksariyati nafaqa yoshida.

Markaz ishida bronxoskop apparatining ahamiyati sezilarli. Bu yerda yo‘qligi sababli bemorlar shunday tibbiy apparat mavjud muassasalarga yo‘naltirilyapti. Shuningdek, BAK laboratoriyaning ventilyatsiya tizimi islohga muhtoj. Tez orada bu masalalar ham o‘z yechimini topadi.

Hamzabek TURDIYEV,
jurnalist

Qoraqalpoq adabiy tilining shakllanishi, rivoji va takomillashuvida Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining xizmati katta. U qoraqalpoq adabiyotiga turkiyzabon xalqlar uchun umumiy bo‘lgan yozma adabiyot an’analarini olib kirdi.

2024-yil 8-noyabr, 227-son

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ajiniyoz tavalludining 200 yilligiga

QORAQALPOQ ADABIY TILI SHAKLLANISHIGA KATTA HISSA QO‘SHGAN SHOIR VA MUTAFAKKIR



Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li betakror va sermazmun ijodi bilan xalqimiz madaniyati va adabiyotini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va og‘izbirchilikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan ulkan ijodkordir.

Gulmira KARLIBAYEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Prezidentimizning joriy yil 16-iyuldagi “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori bilan adibning adabiy merosini yanada keng o‘rganish va ommalashtirish hamda tavallud sanasini munosib nishonlash maqsadida bir qancha tadbirlar, rejalar belgilandi. Bu e’tibor shoir ijodiga yuksak ehtirom belgisidir.

Hassos shoirning she’r va dostonlarida aks etgan umuminsoniy qarashlar el-yurtimiz qalbidan chuqur joy egallagani joylarda tashkil etilayotgan tadbirlarda ham namoyon bo‘layotir. Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining qoraqalpoq adabiy tili rivojidagi o‘rni alohida.


XIX asr qoraqalpoq mumtoz poeziyasi millat madaniyati taraqqiyotida oltin halqani tashkil qiladi. Joriy ijodiy bosqichda ifoda va tasvir imkoniyatlari an’anaviy uslubiy qo‘llanma hosil qilish barobarida davr ijtimoiy-tarixiy manzarasini chizish, hayotiy-maishiy muammolar hajmini umumlashtirish, voqea-hodisot mohiyatiga kirib borishga moyillik, xalq ma’naviyati, manfaati va ehtiyojlarini tahlillashga intilish an’anaga aylanayozdi. Xususan, Kunxo‘ja she’riyatida so‘z va tasavvur bir-birini to‘ldiruvchi ajib uyg‘unlikka erishadi. Ajiniyoz lirikasida diniy-ma’rifiy aqidalar ustuvorligi qabarib ko‘rinadi.

Qoraqalpoq adabiy tilining shakllanishi, rivoji va takomillashuvida Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘lining xizmati katta. U qoraqalpoq adabiyotiga turkiyzabon xalqlar uchun umumiy bo‘lgan yozma adabiyot an’analarini olib kirdi. Shu ma’noda, Ajiniyoz adabiy merosini qoraqalpoq yozma adabiyoti va adabiy til tadriji tizimi yaxlitligida o‘rganish muhim ilmiy ehtiyojlar keltirib chiqaradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, shoir yashagan davrda qoraqalpoq adabiy tili tarixida ikkita yo‘nalish muhim sanalgan. Birinchi yo‘nalish — qoraqalpoq xalqi hayotida amalda bo‘lgan umumxalq so‘zlashuv uslubi negizida asarlar yaratish, ikkinchi yo‘nalish Markaziy Osiyo madaniy hayotida hukm surgan bir necha asrlik turkiy adabiy til an’analariga tayangan ijod namunalarini rivojlantirishdir. Qoraqalpoq yozma adabiyoti va adabiy tilining shakllanishi ham ana shu turkiy adabiy til an’anasi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyoda amalda bo‘lgan turkiy adabiy til hududda yashaydigan barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak til vazifasini o‘tagan.

Sharq xalqlari adabiyoti yetuk namoyandalarining Ajiniyoz ijodiga ta’siri kuchli bo‘lgan. Bu esa shoirga yozma adabiyot an’analaridan ijodiy foydalanib, umumxalq qoraqalpoq tili asosida adabiy til me’yorlarini muayyan tartibga tushirish uchun katta imkoniyat yaratgan. Shu ma’noda, u qoraqalpoq yozma adabiy tiliga turkiyzabon xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan turkiy adabiy til an’analarini olib kirgan tarixiy siymodir.

Ajiniyoz Sharq she’riyatini yaxshi bilgan, uning asrlar davomida shakllangan an’analari, tajribalarini chuqur o‘zlashtirgan shoir sifatida qoraqalpoq poeziyasini janr, shakl, badiiy vosita va uslub jihatidan ancha boyitdi. Til badiiy tasvir vositalarining ma’no mukammalligiga erishish uchun undan poetik san’atlar ifodasi sifatida mohirona foydalandi. Qoraqalpoq adabiyotida so‘z qo‘llash san’atini adabiyotning ruhiy-estetik mohiyati va inson botiniy dunyosini ochib berish tamoyillariga bo‘ysundirdi, qoraqalpoq adabiyotini xalqchil, insonparvar, teran ichki tuyg‘ularni nozik ifodalovchi adabiyot o‘zaniga burib yuborishga erishdi.



Sharq mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalari — Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli asarlaridan cheksiz ilhomlandi, ularni ijodiy qayta ishlab, qoraqalpoq yozma adabiyotini shaklan va mazmunan boyitdi, tilini esa oddiy so‘zlashuv tilidan go‘zal adabiyot tiliga aylantirdi. Darhaqiqat, shoir asarlari ta’sirchan, go‘zal, leksik-semantik va uslubiy jihatdan rang-barang. Bu haqda akademik H.Hamidov “XVII-XIX asrlardagi qoraqalpoq shoirlari orasida o‘z asarlari va tili bo‘yicha alohida ajralib turadigani — Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li. Uning asarlarida, tilida Sharqning ta’siri ko‘proq seziladi. U mahalliy ona tilini bilish bilan birga o‘sha davrning havas qilsa arziydigan namunasi — Sharq madaniyatini, tilini, Markaziy Osiyo yozma adabiy tilini yaxshi bilgan va uni o‘z ona tili — qoraqalpoq tili bilan payvasta qila olgan. Ajiniyozning yana bir xususiyati ijodining yozma adabiy tilga mansubligidir. Uning ushbu an’anaga bevosita aloqadorligini keyingi yillarda topilgan asarlarining qo‘lyozma nusxalari to‘la oydinlashtiradi”, deya ta’kidlagan.

Shoir lirikasida badiiy til puxta ishlangan vosita. U xalq lisonida iste’molda bo‘lgan lug‘aviy birliklardan o‘rinli va unumli foydalanish darajasi bilan o‘lchanadi. Badiiy san’at muayyan malakasiz, nozik qochirim, so‘zni har xil ma’no tovlanishlarida qo‘llashsiz o‘z vazifasini tugal ado eta olmaydi. Ajiniyoz o‘z asarlarida so‘z san’atining turli usullarini qo‘llab, she’rlarining poetik qimmatini oshirish, ularni xalq diliga yaqinlashtirishga intilgan. Shoir, eng avvalo, asarlarida so‘zlarning ko‘p ma’noliligidan mohirona foydalangan. Shu asosda she’rlarida ko‘rish, tasavvur qilish, sevish, fahmlash, tushunish, anglash, hissiy zavqlanish tuyg‘ulari bilan bog‘liq uyg‘unlikka erishishga harakat qilgan.

Ijodkor aynan qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillari orasida badiiy til imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilgan. Unda tasvir ko‘p qatlamliligi bilan ifoda o‘ziga xosligi bir-biriga o‘tib turadigan tushunchalar sanaladi. Shu bois, adabiy talqinda xalqona ohang ustuvor. Tuyg‘ular realizmi haqqoniyati ko‘p ma’noli so‘zlar tanlovida yorqin in’ikosini topadi. Binobarin, istiloh til mezonlari barqarorlashuviga mustahkam zamin hozirlaydi. Odatda tushuncha ma’no tarmoqlari kengayishi til nazariyasida polisemiya deb ataladi. Ko‘p ma’noli so‘z qo‘llanishida Ajiniyoz poetik mahorati ko‘zga tashlanadi:

Mambet to‘ra bosh bo‘lib, keladi qo‘l,
Qo‘lning ko‘pligidan qazilar yo‘l...

Bu misoldagi qo‘l so‘zi “odamning qo‘li” ma’nosida emas, so‘z birikmalaridagi “qo‘l keladi”, “qo‘lning ko‘pligi” ma’nosida Mambet to‘ra boshqargan askarlar kelayotgani, ularning ko‘pligi haqidagi tushunchani anglatadi. Demak, ko‘p ma’noviylik leksik ma’no odatiy tadrijida emas, balki ma’nolar orasidagi yaxlitlik, ma’no anglatish tizimi tarmoqlari xoslanganlik darajasidagina to‘laqonli poetik ahamiyat kasb etadi.

So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, ko‘p ma’noviylik, ularning orasidagi bog‘liqlik bu tarixiy taraqqiyot davomida barqarorlashadigan til semantik o‘zgarishlaridan iborat. Masalan, Ajiniyoz qalamiga mansub “Bo‘zatovli nozanin” nomli she’rda buning yorqin tajassumini ko‘rish mumkin.

So‘z ko‘p ma’noligi hosil bo‘lishining eng asosiy usullaridan biri — metafora. Ajiniyoz asarlarida qo‘llangan metaforalar poetik nutqqa alohida jozibadorlik va emotsionallik bag‘ishlaydi. Unda xalq tiliga xos obrazli metaforalar ham, badiiy adabiyotga xos obrazli-ekspressiv metaforalar ham, faqat shoirning individual uslubiga xos metaforalardan ham mohirona foydalanilgan.

Istiorani unumli qo‘llashda Ajiniyozning individual poetik uslubi o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Unda tashbeh qo‘llash, tasavvur aniqligini hosil qilish bilan payvand adabiy mahorat saviyasi seziladi:

So‘zlaganda shakar etar so‘zingni,
Ko‘rganda bemag‘rur etar o‘zingni,
Bahori to‘ydirar ikki ko‘zingni,
Layli, Zulayhoday qizlari bordir...

She’riy lavhada muallif milliy ma’naviyat ifodasini tadqiq sahniga chiqaradi. Yurt tarannumi chizilgan manzara yaratishda shoir “so‘z”, “ko‘z” tushunchalari ma’no tovlanishidan samarali foydalanadi. Til, jur’at va rizq-nasiba ma’nolarini tashiydigan ma’no uzvlarida o‘ziga xos tarovat mujassam. Nutq va namoyish muqoyasasini urg‘ulagan san’atkor poetik idrok yaxlitligini aynan tasavvurlararo raqobatdan axtaradi. Metaforik fikr qatidan sizib chiqadigan mushohada mantig‘i tashbehni detallashtiradi:

Avvalo, dunyoga keldi Banijon,
Ellik ming yildan so‘ng foniy demishlar.
Ins-jinsi, jonli-jonsiz bir inson,
Odam karvon, dunyo sarbon demishlar.

Ajiniyoz “Demishlar” she’rida metaforik tafakkur umumlashgan ifoda tarzi kuzatiladi. Syujet va obrazni tutashtiradigan istiorada mavjudlik jumbog‘i, odamzod ibtidosi va intihosi hamda hayotning mazmun-mohiyati falsafiy umumlashtiriladi. Mavjud holat, birinchidan, tasavvur-taassurot ko‘p qatlamliligi hosilasi, ikkinchidan, badiiy vazifadoshlik kengayishi, uchinchidan, ijodiy yaxlitlik zichligi bilan izohlanadi. Adabiy muhokamada Banijon qiyofasi dominant obraz tarzida mushohada mantiqiy taraqqiyotini ta’minlagan. Ibtidoiy tasavvurga muvofiq, odamzoddan avval paydo bo‘lgan bahaybat qush aqlli va so‘zlay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan jonzot sanaladi. Ellik ming yil umr ko‘radigan maxluq tirnoq bilan tog‘lar qazigani e’tirof etiladi. Muallif “inson karvon, dunyo sarbon” ta’kidlovi vositasida faqat va faqat ezgulik umri boqiyligiga ishora qiladi. Muallif falsafiy mushohada tazodiy munosabati (baqo va fano) yordamida insoniyatni ogohlikka da’vat etadi.

Umuman, Ajiniyoz she’riyatida voqelikni poetik idroklash va real baholash jaraëni tasavvurga muntazam vazifadoshlik yuklash — uni boyitib borish vositasida muayyan estetik salmoq kasb etgan.

Mutolaa zavqi


BUGUNGI “KITOBXON BOLALAR” – ERTANING “DUNYO DAHOLARI”


BOLALAR UCHUN O‘N NOMDAGI YANGI KITOBLAR NASHRDAN CHIQDI



Ota-onalar “Farzandim telefondan boshini ko‘tarmaydi, qo‘liga kitob olmaydi”, deya ko‘p noliydi. Ammo o‘zi o‘rnak bo‘lib ularga kitob o‘qib berishga, yoshiga mos asarlar sovg‘a qilishga doim ham qunt qilavermaydi. Albert Eynshteyn “Bolalaringiz aqlli bo‘lishini istasangiz, ularga ertaklar o‘qib bering. Bolalaringiz yanada aqlli bo‘lishini istasangiz, ularga ko‘proq ertak o‘qib bering”, degan edi. Ha, bolaning yosh toifasiga, ruhiyatiga hamda dunyoqarashiga mos asarlarga doim ehtiyoj bor.







Joriy yil 7-noyabr kuni poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida Jurnalistlar uyushmasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamkorligida “Kitobsevar millat” shiori ostida “Kitobxon bolalar” va “Dunyo daholari” ruknida chop etilgan kitoblar taqdimoti o‘tkazildi.

Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan e’lon qilingan 2023-yilda NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasida muhim ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishga davlat ijtimoiy buyurtmalarini taqdim etish uchun tanlovda Jurnalistlar uyushmasining “Aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish” loyihasi g‘olib topilgan.

Loyiha doirasida bolalar va o‘smirlar uchun o‘zbek va jahon adabiyotining o‘n nomdagi eng yaxshi namunalarini nashrga tayyorlash, chop etish, audio shakllarini yaratish, ularni axborot-kutubxona muassasalariga beg‘araz taqdim etish belgilangan edi. Natijada “Kitobxon bolalar” rukni ostida “Shalola”, “Oq qovunning bolasi”, “Uchar hammom”, “Sehrgarning uzugi”, “Bolalikning qo‘lidan tutib”, “Dunyo daholari” turkumidagi “Stiv Jobs — kompyuterga jon bergan odam”, “Muhammad Ali — barcha davrlarning buyuk bokschisi”, “Leonardo da Vinchi — zamonasidan ilgarilab ketgan aql sohibi”, “Motsart — musiqa dahosi”, “Albert Eynshteyn — serqirra daho” kitoblari chop etildi. Kitoblar mazmuniga mos rasmlar bilan boyitildi, ular bolalar e’tiborini o‘ziga jalb etishga, voqealar tasavvurida gavdalanishiga xizmat qiladi.

Shu kungacha bolalar uchun nashr etilgan kitoblarda buyuk shaxslarning 40-50 yoshdagi hayoti ko‘proq tasvirlangan. Uning bolalik va o‘smirlikdagi hayoti, qiziqishlari, qanday qilib bu darajaga yetgani haqida to‘laroq ma’lumot berilmaydi. Bunday asarlarni o‘qigan bola qahramonga havas qilishi, ishlaridan hayratlanishi mumkindir, ammo ilhom olishi, murg‘ak qalbida motivatsiya uyg‘onishi, u haqida fikrlari to‘liq shakllanishi uchun yetarli bo‘lmaydi. 7-8 yoshli bola uchun Amir Temur yoki Jaloliddin Manguberdining o‘ttiz yoshdagi faoliyatidan ko‘ra o‘zi bilan baravar, bola Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur haqidagi hikoyalar qiziq emasmi?!

— “Dunyo daholari” ruknida chop etilgan kitoblarda faqatgina daholarning kashfiyotlariyu ilmiy salohiyati, aqlbovar qilmas iste’dodiga urg‘u bermasdan, ularning bolalik yillari, ilk orzulari, oilaviy muhiti haqida hikoya qilishni maqsad qildik, — deydi “Asaxiy Books” loyihasi rahbari Firuz Allayev. — Ya’ni bolalarga asar qahramonlarini birdaniga daho deb emas, o‘zi tengi o‘smir qilib tanishtirdik, qaysi bosqichlardan o‘tib bunday natijalarga erishganini tasvirlashga intildik. O‘ylaymanki, bu ham yangi yondashuv va samarali yo‘ldir. O‘rtacha 15 yildan keyin hozirgi bolalar ertangi O‘zbekistonning mehnat bozorini, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy maydonini egallaydi. Ertamiz qanday odamlar qo‘lida qolishi esa bugun ularga nimalar o‘rgatishimiz va ularning qo‘liga qanday kitoblar tutqazishimizga bog‘liq.

So‘nggi yillarda bolalar adabiyoti yurtimizda bir oz oqsayotgan, bu yo‘nalishda ijod qilayotganlar kamayib ketgandek, o‘quvchisi kutayotgan asarlar yozilmayotgandek tuyiladi. Aslida, tanganing ikkinchi tomoni ham bor: bu bolalarbop asarlarning bozori chaqqon emasligi, ijodkorning ko‘p nusxada kitob chop etish xarajatlari qoplanmasligi, uning moddiy rag‘batlantirilishi masalalari bilan ham bog‘liq. Chekka hududlarda ijod qilib, o‘smirlar va bolalar dunyosini ochib beradigan asarlar yozib yurgan, ammo uni nashr etishga homiy topolmayotgan, “o‘z yonidan” kitob chiqarishga qurbi yetmayotgan ijodkorlar qancha?! “Kitobxon bolalar” rukni ostida chop etilgan ba’zi to‘plamlardan aynan shunday iqtidorli shoir-yozuvchilarning asarlari joy olgan.

— “Bolalikning qo‘lidan tutib” kitobiga ancha yillardan buyon yurtimizning turli hududlarida ijod qilayotgan shoir-yozuvchilardan eng qalami o‘tkirlarining ijodiy namunalarini saralab to‘pladik, — deydi bolalar yozuvchisi, “Gulxan” jurnali bosh muharriri Zahro Hasanova. — Ularning asarlari faqat estetik zavq beribgina qolmay, o‘zi yashaydigan hududga oid toponimlar, tabiat hodisalari haqida tushuncha ham beradi. Odatda bolalar fantastik asarlarga qiziqadi, biz bunday asarlar zamirida to‘g‘riso‘zlik, yaxshilik g‘oyalarini singdirish orqali murg‘ak qalb egalari ko‘ngliga kira olamiz. Bu kitoblarning hamma maktablarga, chekka qishloqlardagi kutubxonalarga ham yetib borishini istardim. Ularning ko‘p nusxada chop etilishi, millionlab bolalar qo‘liga tushishi juda muhim.

Bir qarashda bolalar adabiyoti yengil, yozish oson tuyilishi mumkin. Ammo bu yo‘nalishda “Aldagani bola yaxshi” qabilida har qanday ijod namunasini o‘quvchiga tortiq qilib bo‘lmaydi. Bunda bilib-bilmay bolani ayyorlikka, yolg‘on ishlatib vaziyatdan chiqishga, birovning ustidan masxaralashga o‘rgatib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish hamda nozik yondashuv talab qilinadi. Shunday ekan, so‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar uchun chop etilayotgan kitoblar, xususan, “Dunyo daholari” hamda “Kitobxon bolalar” ruknidagi asarlarning tahrir va tahlil jarayoni muallif, muharrir, rassom, musahhih, dizayner, sahifalovchi, ekspertlar jamoasi kabi bir qancha bosqichdan o‘tishi barobarida ishga bolalar psixologi ham jalb etilgani e’tiborga molik.

Barcha zamonda ham inson ongida ma’naviy ozuqaga ehtiyoj, ruhiy boyish uchun bo‘shliq saqlanib qolaveradi. O‘sha bo‘shliqni to‘ldirish uchun ozuqani qachon va qay shaklda yetkazishni, mas’uliyat va mohiyatni unutmaslik lozim. Yuqorida nomlari keltirilgan kitoblardan katta qismi kutubxonalarga beg‘araz yetkazilishi, chekka hududlardagi bolalar ham bahramand bo‘lishi maqsad qilingan. O‘ylaymizmi, bu asarlar o‘z jajji o‘quvchilarini topadi va ular uchun har tomonlama foydali bo‘ladi.

Rashid XO‘JAMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3906.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:25 Topshirildi — 00:30

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05